



UDK:91.2

Jamshidbek RASULOV

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Dsc, professor.S.Saidakbarov taqrizi asosida

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY MUNOSABATLAR TIZIMI EVOLUTSIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlar tizimining rivojlanish bosqichlari falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qiladi. Ijtimoiy munosabatlarning evolyutsiyasini tarixiy, siyosiy va madaniy omillar bilan bog‘lab, yangi mustaqil davlat sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning jamiyat strukturasi va qadriyatlariga ta’siri tadqiq etiladi. Shuningdek, ijtimoiy barqarorlik, adolat, fuqarolik jamiyati va axloqiy tamoyillar kabi asosiy falsafiy kategoriyalar konseptual nuqtai nazardan tahlil qilinib, zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida milliy o‘zlik va global jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy munosabatlar, tizim evolyutsiyasi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy islohotlar, modernizatsiya, demokratik qadriyatlar, inson omili, ijtimoiy adolat, taraqqiyot strategiyasi.

ЭВОЛЮЦИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются этапы развития системы социальных отношений в Новом Узбекистане на основе философских подходов. Эволюция социальных отношений рассматривается в связи с историческими, политическими и культурными факторами, исследуется влияние социально-политических изменений, произошедших в условиях нового независимого государства, на структуру общества и его ценности. Кроме того, основные философские категории, такие как социальная стабильность, справедливость, гражданское общество и нравственные принципы, анализируются с концептуальной точки зрения, при этом подчеркивается важность взаимосвязи национальной идентичности и глобальных процессов в формировании современных социальных отношений.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, социальные отношения, эволюция системы, гражданское общество, социальные реформы, модернизация, демократические ценности, человеческий фактор, социальная справедливость, стратегия развития.

THE EVOLUTION OF THE SYSTEM OF SOCIAL RELATIONS IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the stages of development of the social relations system in the New Uzbekistan based on philosophical approaches. The evolution of social relations is examined in connection with historical, political, and cultural factors, investigating the impact of socio-political changes that have arisen in the context of the new independent state on the structure of society and its values. Furthermore, key philosophical categories such as social stability, justice, civil society, and ethical principles are analyzed from a conceptual perspective, highlighting the important role of the interplay between national identity and global processes in shaping modern social relations.

Key words: New Uzbekistan, social relations, system evolution, civil society, social reforms, modernization, democratic values, human factor, social justice, development strategy.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida O‘zbekiston jamiyatida kechayotgan chuqur siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy o‘zgarishlar mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasining amaliy ifodasi sifatida inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish, adolat va ijtimoiy tenglik tamoyillariga asoslangan yangi ijtimoiy munosabatlar tizimi shakllanmoqda. Ushbu jarayon mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarning mazmun-mohiyatini, ularning tarixiy ildizlari va zamonaviy tendensiyalarini chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarning evolyutsiyasi avvalo inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, gender tenglikni mustahkamlash, yoshlar siyosatini takomillashtirish, oilaning ijtimoiy institut sifatidagi rolini oshirish kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ochiqlik, ishonch va hamkorlik tamoyillarining qaror topishi ijtimoiy tizimning demokratik asoslarda yangilanishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli

transformatsiya, fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi, ommaviy kommunikatsiya vositalarining kengayishi ham ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy ongning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bu holat ijtimoiy tizim evolyutsiyasini faqat iqtisodiy yoki siyosiy o‘zgarishlar emas, balki madaniy va ma’naviy omillar ham izohlash zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlar tizimining rivojlanish bosqichlari, ularning falsafiy, sotsiologik va tarixiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy tizim evolyutsiyasiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi shakllari hamda jamiyat taraqqiyotida inson omilining o‘rni ochib beriladi.

Sharqda qadimdan mutafakkirlarning falsafiy qarashlarida ijtimoiy munosabatlar ya’ni insonlar, turli qatlamlar, davlat va xalq orasidagi munosabatlar ilmiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, tenglik, saxovatpehalik, halollik, adolatparvarlik hamda ilmga

tashnalik tushunchalari ularning falsafiy qarashlarida ijtimoiy g'oya bo'lib xizmat qilgan. Buyuk donishmand bobomiz Imom Buxoriy "Al-Jome' as-Sahih" asarida "diniy e'tiqod, ibodat va shaxsiy axloq masalalarini, balki ijtimoiy munosabatlar, davlat boshqaruvi, savdo, huquq va jamiyatdagi tartib-intizomga oid ko'plab hadislarini o'z ichiga oladi. Imom Buxoriy uchun ijtimoiy munosabatlar – bu faqat jamiyatdagi tartib emas, balki Alloh oldidagi mas'uliyatdir", deb keltirib o'tadi. Sohirqiron Amir Temur bobomiz "Davlat ichidagi tinchlik va barqarorlik faqat adolat va ijtimoiy birdamlik asosida barpo etiladi. Agar davlat o'z xalqiga bo'lsa, xalq ham davlatga bo'lsa, u holda yurt saodat topadi", ta'kidlaydi. Shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy "ma'rifatsiz kishilar – tuproqqa ekilmagan urug' kabidirlar", ta'riflaydi.

Mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekistonda ijtimoiy munosabatlar tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatni modernizatsiya qilish, davlat boshqaruv sohasidagi ijobiy o'zgarishlar hamda fuqarolik jamiyatining shakllanib borishi bilan ijtimoiy munosabatlar shaklan va mazmunan o'zgaradi. Ayniqsa, keying yillarda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi asosida olib borilayotgan stratejik islohotlar bu tizimni faol rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqillik yillariga qadar agressiv markazlashgan davlat boshqaruvi hamda "temir" iqtisodiyot davrida ijtimoiy munosabatlar tizimi faqat davlat manfaatlariga qaratilgan edi. Mustaqil O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan ilgari surilgan bozor iqtisodiyotiga evolyutsion o'tish sharoitlarida davlat manfaatlari bilan birga xalq irodasi ham qayta ko'rib chiqildi. Yangi O'zbekiston sharoitida esa inson eng ulug' qadriyat sifatida ulug'lanib, davlat faqatgina uning taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qiluvchi tizim yaratildi. "Davlat ijtimoiy sohadagi ishtirokini faqat nazorat bilan cheklab qolmay, balki faol subyekt sifatida aholining ehtiyojlariga mos xizmatlarni yo'lga qo'ya boshladi".

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020-yilda "Ijtimoiy himoya milliy agentligi"ni tashkil etilishi ijtimoiy ko'mak tizimi takomillashuvida yangi qadamlardan biri bo'ldi. Bu orqali ehtiyojmand aholi qatlamlari aniqlanib, manzilli yordamlar ko'rsatish mexanizmi shakllandi.

Bundan tashqari ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish davlatning asosiy strategiyalaridan biriga aylandi. "Mahallabay" hamda "honadonbay" ishlash tizimi shakllantirildi. Ish bilan bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash masalalarida kompleks tizim faoliyati yo'lga qo'yildi. Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy munosabatlartizimida fuqarolik jamiyatining mavqei yuqori darajada oshdi. Ayniqsa, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoatchilik nazorati, matbuot va so'z erkinligi hamda fuqarolar tashabbuslari inobatga olinib, ijtimoiy mammlarni hal etishda esa faol ishtirokchiga aylandi. Shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi natijasida fuqarolarning ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki ortib bormoqda. Ochiqlik, adolat hamda hisobdorlik tamoyillari ijtimoiy munosabatlarning yangi bosqichga ko'tardi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy munosabatlar tizimining evolyutsiyasi jarayoni mamlakatning mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya bosqichlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy tizim — bu jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy hayotini bir butunlikda birlashtiruvchi murakkab strukturadir. Shu bois uning har bir o'zgarishi jamiyatdagi qadriyatlar tizimi, ijtimoiy institutlar faoliyati va insonlarning ijtimoiy ongi bilan uzviy bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

Falsafiy jihatdan olganda, O'zbekiston jamiyatida kechayotgan evolyutsion o'zgarishlar ijtimoiy modernizatsiya va ma'naviy uyg'onish jarayonlarining sintezidir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston – bu,

eng avvalo, yangi tafakkur, yangi ijtimoiy ong, yangi fuqarolik mas'uliyati demakdir" (Mirziyoyev, 2021, 14-bet). Ushbu g'oya jamiyatda munosabatlarning yangi shakllarini shakllantirishga, fuqarolarni ijtimoiy hayotga faol jalb etishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy munosabatlarning evolyutsiyasi bir necha yo'nalishlarda kechmoqda. Birinchidan, **davlat va fuqarolik jamiyati** o'rtasidagi o'zaro aloqalar yangi mazmun kasb etmoqda. Fuqarolik institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, yoshlar va ayollar uyushmalari jamiyatning ijtimoiy hayotida faol subyekt sifatida ishtirok etmoqda. Bu holat J. Habermasning "ommaviylik maydoni" konsepsiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, ijtimoiy mulqotning ochiqligi va fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish jarayonlarini ifodalaydi (Habermas, 1996, 22-bet).

Ikkinchidan, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari asosida ijtimoiy siyosat qayta ko'rib chiqilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kambag'allikni qisqartirish, aholini ijtimoiy himoyalash, ta'lim va tibbiyot sohasida teng imkoniyatlar yaratish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Bu esa A. Maslowning "insonga yo'naltirilgan rivojlanish" nazariyasiga muvofiq, inson manfaatini ijtimoiy tizim markaziga qo'yish tamoyiliga asoslanadi.

Uchinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ijtimoiy munosabatlarning shakli va mazmunini tubdan o'zgartirdi. Raqamli kommunikatsiya, onlayn mulqot, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxslararo aloqalarning kengayishi ijtimoiy tizimni dinamik va ko'p qirrali ko'rinishga keltirdi. Bu holat M. Kastellsning "Axborot jamiyati" konsepsiyasida qayd etilganidek, ijtimoiy aloqalarning tarmoq xarakterini kuchaytirmoqda (Castells, 2000, 45-bet). O'zbekistonda ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ijtimoiy boshqaruvni ochiqlik va samaradorlik yo'nalishida modernizatsiya qilmoqda.

To'rtinchidan, ma'naviy va madaniy qadriyatlarining yangilanishi ijtimoiy tizimning asosiy komponentlaridan biridir. Yangi O'zbekiston konsepsiyasida milliy merosga sodiqlik va zamonaviylik uyg'unligi g'oyasi yetakchi o'rin tutadi. Ijtimoiy ongda an'anaviy qadriyatlar bilan bir qatorda tolerantlik, madaniyatlararo mulqot, inson huquqlarini hurmat qilish kabi universal qadriyatlar kuchaymoqda. Shu jihatdan ijtimoiy munosabatlar tizimi milliy o'zlikni saqlagan holda global tamoyillarga moslashmoqda.

Beshinchidan, ijtimoiy mobilizatsiya va yoshlar faolligi yangi bosqichga ko'tarildi. Yosh avlodning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faolligi, innovatsion tafakkuri, raqamli kompetensiyalari yangi ijtimoiy qatlam – "Yangi O'zbekiston yoshlari" fenomenini shakllantirmoqda. Ular ijtimoiy modernizatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilmoqda.

Ijtimoiy tizim evolyutsiyasining mohiyatini falsafiy nuqtayi nazardan baholaganda, bu jarayon barqarorlik va o'zgarish dialektikasi asosida kechayotgani ko'rinadi. Jamiyat bir tomondan an'anaviy institutlarni saqlab qolsa, ikkinchi tomondan yangi ijtimoiy strukturalarni yaratmoqda. Bu dialektik muvozanat ijtimoiy tizimni beqarorlikdan asrab, uni barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqmoqda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasining asosiy maqsadi – inson o'zini to'liq namoyon qilishi uchun imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berish, aholining farovonlik hayot sifatini yanada rivojlantirish, ijtimoiy adolatni qaror toptirishdir. Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlarda faol islohotlar olib borilmoqda:

Birinchidan, aholi bandligi va real daromadlar ya'ni mehnat bozorining erkinlashuvi, xususiy sektorlar faoliyatini rag'batlantirish natijasida yangi ish o'rinlarni yaratish;

Ikkinchidan, ta'lim va tibbiyot ya'ni ta'limning barcha tizimlarini bosqichma-bosqich isloh qilish. Raqamlashtirish va ilg'or texnologiyalarni jori qilish;

Uchinchidan, arzon uy joy va qulay infratuzilma ya'ni ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turar-joylar qurilishi, obod qishloq infratuzilmalarini yaxshilash natijasida ijtimoiy tenglikni ta'minlash.

Ijtimoiy munosabatlar tizimi bu birgina iqtisodiyot yoki siyosat bilan bog'liq hodisa emas. Bu birinchi navbatda jamiyat dunyoqarashida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, insoniyatni ulug'lash va e'zozlash g'oyasining yuksalishidir. Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans davrida bu jarayonlar bosqichma-bosqich emas, balki yaxlit tizim va kompleks yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda evolyutsiyaning mazmuni shundan iboratki, ijtimoiy munosabatlar jamiyat istaklariga monand yangilanib bormoqda. Bugungi kunda fuqarolar faqat siyosat obyekti emas, balki ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida farovon hayotda yashamoqdalar. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Yangi O'zbekistonni o'z mehnatidan baxt topib yashaydigan insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish keng ko'lamli islohotlarimizning asosiy maqsadidir".

Xulosa. Bugungi kunda dunyoda raqobat va global jarayonlar qanday shiddat bilan kerchayotganiga barchamiz

birdek guvohimiz. Bu shiddatli keskinlikka faqat va faqat ilm-ma'rifat, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yutuqlarimizdan foydalangan holda munosib javob bera olamiz. Mamlakatimiz ham dunyo rivojlangan davlar qatori innovatsion strategik tamoyillar asosida dadil odimlab bormoqda. Bu eng avvalo, yoshlarning intellektual salohiyati va ilmiy-texnikaviy malakalardan samarali foydalanishlariga bog'liq.

Bundan tashqari, yoshlarni yurtga sadoqat, milliu iftixor, umuminsoniy qadriyatlarining munosib davomchilari etib tarbiyalash va kamol toptirish, ilm-ma'rifatga targ'ib etish, shuningdek, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans sari dadil borishi uchun bor imkoniyatlarni safarbar etishimiz lozim bo'ladi. Yoshlarga oid davlat siyosatini yangi davr ruhi bilan hamnafas tarzda sayqal berish, ularning muammolarini joyida hal etish, ilmiy innovatsion loyihalarga keng jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Yangi O'zbekiston ijtimoiy munosabatlar tizimi evolyutsiyasi orqali inson qadri, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan jamiyat sari qadam qo'yimoqda. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik faolligi, ijtimoiy barqarorlik va davlatga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy munosabatlarning zamonaviy shakllari — bu faqat iqtisodiy taraqqiyot emas, balki ma'naviy yuksalishning ham ifodasidir.

ADABIYOTLAR

1. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih. Kitob al-Mazolim, Hadis №2444.
2. Amir Temur. Temur Tuzuklari. T., 2013 yil B 45.
3. Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub. T., "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1999. B-25.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni – Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. T., "O'zbekiston" 2023 yil B-91.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., "O'zbekiston". 2022 yil B-202.